

“TASDIQLANDI”
“Kapitalbank” ATB Aksiyadorlari
umumiylig`ilishi tomonidan
2016 yil 30 iYunda
(bayonnomma №3/2016)
Yig`ilish raisi
_____ F.X. Otaxonov

**“KAPITALBANK” ATB
KORPORATIV BOSHQARUV
KODEKSI**

MAZMUNI

| | |
|--|----|
| 1-bob. Umumiy qoidalar | 3 |
| 2-bob. Bankning boshqaruv organlari | 3 |
| 3-bob. Faoliyatning shaffofligini va ichki nazoratning samaradorligini ta`minlash. | 8 |
| 4-bob. Aksiyadorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishni ta`minlash. | 9 |
| 5-bob. Uzoq muddatli istiqbolli rivojlantirish strategiyasi va vazifalarini belgilab olish. | 10 |
| 6-bob. Ijro organining aksiyadorlar va investorlar bilan samarali o'zaro munosabatlari mexanizmlarini joriy etish. | 10 |
| 7-bob. Kasb odobi va manfaatlar borasidagi nizolarni bartaraf etish. | 11 |
| 8-bob. Bank faoliyati standartlarini belgilash va uning xodimlarining xulqi. | 13 |
| 9-bob. Ma'lumotlarni audit va moliyaviy hisobot xalqaro standartlari asosida chop etish. | 15 |
| 10-bob. Bankning korporativ veb-saytini Yuritish tartibi. | 16 |
| 11-bob. Kodeks qoidalarini joriy etish monitoringi. | 17 |
| 12-bob. YAkuniy qoidalar. | |

Ushbu “Kapitalbank” ATB Korporativ boshqaruvi kodeksi (bundan buyon – Kodeks) O’zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi (yangi tahriri) Qonunlariga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-4720-sonli Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000 yil 24 iYunda tasdiqlangan, O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 5 iYulda 943-raqami bilan ro’yxatdan o’tkazilgan “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to’g’risida”gi Nizom, 2015 yil 31 dekabrdagi Aktsiiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi tomonidan 2015 yil 31 dekabrdagi tasdiqlangan “Korporativ boshqaruv kodeksi”ga (ko’chirmalarda), shuningdek “Kapitalbank” ATB Ustaviga binoan ishlab chiqilgan.

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Kodeks biznesni halol va shaffof tarzda olib borishga, biznesni olib borishning axloqiy standartlaridan foydalanishga, bank aksiyadorlari va mehnat jamoasiga nisbatan javobgarlik tuyg`ulariga rioya qilishga o’zining sodiqligini namoyon qilib “Kapitalbank” ATBda (bundan buyon – “bank”) korporativ boshqaruvni tashkil etish asoslarini belgilab beradi.
2. Ushbu Kodeks maqsadlarida, korporativ boshqaruv deganda, bank aksiyadorlari, Bank Kengashi va Boshqaruvi a`zolari, mehnat jamoasi vakillari va bank faoliyatini boshqarish sohasidagi boshqa rahbar xodimlar o’rtasidagi bank faoliyatini samarali tashkil etish va uning ustav kapitaliga potentsial xorijiy investorlarni jalb qilishni ta`minlash uchun ko’rsatib o’tilgan shaxslarning balansiga erishish maqsadidagi o’zaro munosabatlari tizimi tushuniladi.
3. Bank Aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan. Bankning asosiy maqsadi qonunchilik bilan ruxsat etilgan ko’lamlarda korporativ daromadni va aksiyadorlar foydasini oshirishga yo’naltirilgan faoliyatni amalga oshirishdan iborat.

2-BOB. BANKNING BOSHQARUV ORGANLARI

4. Aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi, Bank Kengashi va Boshqaruvi - Bankning boshqaruv organlari hisoblanadi. Bank Kengashi va Boshqaruvi ularga bank Ustavi, ushu Kodeks, Aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishi, O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va bankning boshqa mahalliy hujjatlari bilan berilgan vakolatlari doirasida bank faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi

5. Aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi bankning oliy boshqaruv organi hisoblanadi.
6. Aksiyadorlar quyidagi huquqlarga egadirlar:
 - a) ularni bank aksiyadorlari ro’yxatiga kiritish;
 - b) o’ziga nisbatan depo hisobidan depozitariylarga ko’chirma olish;
 - v) bank daromadining bir qismini dividendlar ko’rinishida olish;
 - g) bank tugatilgan taqdirda, ularga tegishli bo’lgan ulushlarga mos ravishda mulkning bir qismini olish;
 - d) Aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishida ovoz berish yo’li bilan bankni boshqarishda ishtiroy etish;

e) belgilangan tartibda bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida to'liq va haqqoniy ma'lumotlar olish;

yo) olingan dividenddan erkin tarzda foydalanish;

j) qimmatli qog`ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

z) ularga etkazilgan zararni o'rnatilgan tartibda undirilishini talab qilish;

i) o'z manfaatlarini taqdim qilish va himoya qilish maqsadlarida uYushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarga birlashish;

y) qimmatli qog`ozlarni sotib olish paytida Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, shu jumladan qo'ldan boy berilgan foyda bilan bog`liq bo'lgan xatarlarni sug`urtalash.

7. Aksiyadorlar qonunchilik va ushbu bank Ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

8. Bank aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishini har yili o'tkazib turishi zarur. Aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi moliya yili tugagandan so'ng olti oydan kechiktirilmasdan o'tkaziladi.

9. Aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi o'tkaziladigan sanadan uch kun avval ichida shakllantirilgan bank aksiyadorlari reestrida ro'yxatdan o'tgan aksiyadorlar egadir.

10. Aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar "Openinfo.uz" YAgona korporativ ma'lumotlar portalida, bankning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e`lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali etti kun ichida, biroq aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi o'tkaziladigan sanagacha o'ttiz kundan kechiktirilmasdan Yuboriladi.

11. Bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi bank ustavi va boshqa mahalliy hujjatlariga binoan bir yil muddatga Taftish komissiyasi saylanadi. Taftish komissiyasi a`zolari soni va funksiyalari bank Ustavi va boshqa mahalliy hujjatlari bilan belgilanadi.

12. Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida bankda Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tashkil etiladi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a`zolarining soni va funksiyalari bank Ustavi, Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi to'g'risidagi Nizomi va boshqa mahalliy hujjatlari bilan belgilanadi.

13. Bankni boshqarish uchun aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi belgilangan tartibda mahalliy hujjatlarni tasdiqlaydi.

14. Aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi amaldagi qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlariga binoan boshqa majburiyatlar va huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

Bank qo'mitasi.

15. Bank qo'mitasi bank faoliyatiga umumiyligi rahbarlikni amalga oshiradi, qonunchilik va bank Ustavi bilan aksiyadorlarning umumiyligi yig`ilishi vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal qilish – bundan mustasno.
16. Kengash a`zolari bank aksiyadorlarining umumiyligi yig`ilishi tomonidan saylanadi.
17. Bank kengashi 5 kishi tarkibida saylanadi.
18. Bank kengashi tarkibiga saylangan shaxslar chegaralanmagan tarzda qayta saylanishlari mumkin.
19. Bank Boshqaruvi a`zolari va Bank Boshqaruvi Raisi, shuningdek mehnat shartnomasi bo'yicha bankda ishlayotgan shaxslar, Bank Kengashiga saylanishlari mumkin emas.
20. Aksiyadorlardan tashqari, bank sohasidagi olimlar va mutaxassislar ham Bank Qo'mitasi a`zolari bo'lishlari mumkin.
21. Bank Kengashi yig`ilishidagi qarorlar, amaldagi qonunchilikda kelishilgan holatlardan tashqari, ishtirot etayotganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.
22. O'z majburiyatlarini bajarish uchun Bank Kengashi:
 - a) zarur darajadagi malakaga ega bo'lishi va uni quvvatlab turishi, shuningdek ham jamoaviy, ham individual jihatdan ham o'zining chuqur bilimlarga ega ekanligini namoyon qila olishi;
 - b) o'z faoliyatini amalga oshirganida korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilishi;
 - v) faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirishi shart bo'lgan ichki nazorat va xatarlarni boshqarish borasidagi tegishli, ishonchli va mustaqil tizimiga tayanishi;
 - g) bank siyosati va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqlikni hamda adekvat nazoratni ta`minlash uchun bank operatsiyalarini nazoratini amalga oshirishi kerak.
23. Bank Kengashining majburiyatlarini quyidagilardan iborat:
 - a) o'z vakolatlarini bank aksiyadorlari manfaatlari yo'lida amalga oshirish;
 - b) bank rahbariyatining vakolatliliginu ta`minlash;
 - v) Bank Boshqaruvi bilan maslahatlashgan holda bankning uzoq muddatli va qisqa muddatli biznes-rejalarini tasdiqlash;
 - g) (omonatchi, kreditorlar va aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida) bankning tezkor faoliyati, kreditlashning to'g'riliqi va mablag`larni investitsiyalash ustidan joriy nazoratni amalga oshirish;
 - d) bankning adekvat kapitalizatsiyasini qo'llab-quvvatlash;
 - e) bank faoliyati strategiyasini shakllantirish;
 - yo) bankning daromadliliginu monitoring qilish;
 - j) ichki audit xizmatining ishlab turishini tashkil etish;
 - z) qonuniy, xavfsiz va mulohazали bank faoliyatini amalga oshirish, hamda bank maqsadlariga erishish uchun adekvat tezkor siyosatlarni qabul qilish;
 - i) bank faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobtlarni har chorakda tinglab borish;

k) har yilgi aksiyadorlar umumiy yig`ilishida korporativ boshqaruv bo'yicha qonunchilik bilan belgilangan talablarga riosa qilish haqidagi hisobotni taqdim qilish.

24. Bank Kengashi kamida bir oyda bir marta chaqiriladi.

25. Tegishli nazorat tizimini tashkil etish va qo'llab turish maqsadida, Bank Kengashi tegishli qoidalar asosida harakat qiluvchi quyidagi qo'mitalarni tashkil etadi:

a) faqat Bank Kengashi a`zolaridan iborat bo'lgan **Auditorlik qo'mitasi**.

Auditorlik qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

har bir ichki auditni o'tkazish bo'yicha taqdim qilinadigan audit xizmati hisobotlarini o'rganish;

achki audit bo'yicha har choraklik hisobotlarni o'rganish va ularni bank Kengashiga taqdim qilish;

tashqi auditorlar uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda Bank Kengashiga amaliy yordam ko'rsatish;

tashqi audit takliflarining baholanishini o'tkazishda, tashqi auditorni tanlash bo'yicha tavsiyalar tayyorlashda Bank Kengashiga amaliy yordam ko'rsatish;

Ichki audit xizmati va tashqi auditorlarning tavsiyalarini amalga oshirish jarayonini boshqarish ishlarini Bank Boshqaruvi Raisi bilan muvofiqlashtirish;

Tashqi auditorlar hisobotlarini, shu jumladan rahbariyatga yo'llangan xatlarni ko'rib chiqish, va ularni Bank Kengashiga taqdim qilish;

tashqi va ichki auditning auditorlik tekshiruvi jarayonida aniqlangan muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek Bank Boshqaruvi tomonidan auditorlar tavsiyalarining bajarilishi ustidan nazorat qilish;

Bank Boshqaruvi a`zolari va bank bo'linmalarining boshqa rahbarlari tomonidan audit xizmati faoliyatida, hamda tekshiruvlar mazmuni va hajmlarida mustaqillikni ta`minlash va aralashishga yo'l qo'ymaslik.

b) bank xodimlari ichidan ham jalb qilinishi, Bank Kengashi a`zolari va ekspertlaridan iborat bo'lishi mumkin bo'lgan, shuningdek konsalting xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnomaga asosida mustaqil faoliyat Yurituvchi **Bank xatarlarini nazorat qilish qo'mitasi**.

Bank xatarlarini nazorat qilish qo'mitasining vakolatlariga quyidagi masalalarni ko'rib chiqish kiradi:

Xatarlarni boshqarish bo'yicha bank siyosatini ko'rib chiqish va kelishish;

Kredit va Moliya qo'mitalari to'g'risidagi, shuningdek aniq turdag'i xatarlarni boshqarish bo'yicha qoidalarni ko'rib chiqish va kelishish;

Bank tomonidan beriladigan kreditlarning sifatini baholash, zahiralarni shakllantirish va tasniflangan aktivlarni hisobdan chiqarish, berilgan ta`minotning etarligini baholash muolajalarini ko'rib chiqish va kelishish;

Tahlil funksiyalarining kreditlar berish funksiyalariga bog`liqligini nazarda tutuvchi reytingli baholash jarayonining haqqoniyligini tekshirish maqsadlari uchun ichki kreditlashni olib borish muolajalarini ko`rib chiqish;

Bank Kengashiga tashqi foydalanuvchi tomonidan taqdim qilinadigan bank xatarlarini (kredit xatari, foiz xatari, likvidlilik xatari, valYuta xatari, operatsion xatar) boshqarish tizimi, moliyaviy va boshqaruv bo`yicha ma`lumotlarning haqqoniyligi va aniqligi ustidan doimiy monitoringni va ishlashini amalga oshirish;

Stress-testlash, stress-testlar o`tkazish uchun ahamiyatlarni, nazarda tutilmagan hodisalar holatida rejani ko`rib chiqish va kelishish, shuningdek zarur hollarda inqiroz stsenariysining tahlili va tuzatish choralarini ko`rish;

Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangunga qadar xatarlarni boshqarish va ichki nazoratni yaxshilash bo`yicha tashqi auditorlar xulosalarini tahlil qilish, faoliyatdagи kamchiliklarni bartaraf etish bo`yicha choratadbirlar rejasining ijrosini monitoring qilish;

boshqa masalalarni ko`rib chiqish.

v) Bank Kengashi a`zolari va bank xodimlaridan iborat bo`lgan **Xodimlarni rivojlantirish va sifatni baholash qo`mitasi.**

Qo`mita o`z oldiga quyidagi vazifalarni qo`yadi:

Bankni boshqarish va xodimlarini rivojlantirish bo`yicha asosiy qoidalarni ijro etish;

Qo`mitaning vakolatlariga kiruvchi ishga qabul qilish (yollash), bank xodimlarini xizmat pog`onalari bo`yicha ko`tarish (ish lavozimini o`zgartirish) borasida qarorlar qabul qilish bo`yicha belgilangan tartibni ta`minlash;

qo`yilgan vazifalarni samarali bajarish maqsadlarida, Bank bosh ofisi va tarkibiy bo`linmalari (filiallari, OPERB, MIM) xodimlarining tarkibiy miqdorini monitoring qilish va optimallashtirish;

zarurat tug`ilganda, Bank bosh ofisi va tarkibiy bo`linmalari (filiallari, OPERB, MIM) xodimlarining shtatlari sonini qisqartirishni o`tkazish;

qo`mita vakolatlariga kiradigan Bank bosh ofisi va tarkibiy bo`linmalari (filiallari, OPERB, MIM) xodimlariga lavozimi bo`yicha qo`shimcha to`lovlar va boshqa turdagи to`lovlarni belgilash/mahrum qilish, kamaytirish/to`xtatib qo`yish;

bank va uning tarkibiy bo`linmalari xodimlarining ijro va mehnat intizomi ustidan nazoratini amalga oshirish;

xodimlar uchun ustozlikni tashkil etish;

kollegial qaror qabul qilinishiga muhtoj bo`lgan xodimlar bilan ishlash masalalarini ko`rib chiqish.

g) Bank Kengashi a`zolari va xodimlaridan iborat bo`lgan **Investitsiya qo`mitasi.**

Qo`mita o`z oldiga quyidagi vazifalarni qo`yadi:

Yuzaga kelishi mumkin bo`lgan investitsiya yo`qotishlari xatari darajasini chegaralashda Bankning investitsiya siyosatiga erishish va mijozlarga investiiya xizmatlari ko`rsatishdan foyda olish ustidan nazoratni amalga oshirish;

minimal xatarlarda investitsiya mahsulotlarining yangi turlarini va mijozlarga investitsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha maksimal foya olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

d) Bank Kengashi a`zolari va xodimlaridan iborat bo'lgan **Kredit qo'mitasi**.

Kredit qo'mitasi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

yangi ssudalar berish yoki mavjud ssudalarning shartlarini o'zgartirishga taaluqli bo'lgan qismida bankning Kredit siyosati qoidalariga rioya qilishni amalga oshirish va ta`minlash;

minimal xatarlarda mijozlarga ko'rsatishdan maksimal daromad olish kredit mahsulotlarining yangi turlari yoki mavjudlarini o'zgartirish, shuningdek mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlardan maksimal foya olish borasidagi chora-tadbirlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash.

e) Bank Kengashi a`zolari va xodimlaridan iborat bo'lgan **Aktivlar va passivlarni boshqarish qo'mitasi**.

Qo'mita o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

Bankning etarli likvidliligini quvvatlab turishni ta`minlash uchun balans hisoboti, hamda foya va zararlar to'g'risidagi hisobotlar sohasidagi tartibga solib turuvchi va nazorat funksiyalarini amalga oshirishda bank Kengashiga amaliy yordam ko'rsatish;

foizli daromad keltiruvchi aktivlar va passivlarning foiz stavkasi o'rtasida tegishli balansning mavjudligi ustidan kuzatuvlarni amalga oshirish.

26. Bankni boshqarish uchun Bank Kengashi belgilangan tartibda mahalliy hujjatlarni tasdiqlaydi.

27. Bank Kengashi amaldagi qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlariga binoan boshqa majburiyatlarni bajarishi va boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

28. Bank Boshqaruvi kollegial ijobi organi hisoblanib, bankning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi.

29. Bank Boshqaruvi qonunchilik va bank Ustavi bilan aksiyadorlar umumiyligini yig'ilishi va Bank Kengashining vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni bajarishga haqli emas.

30. Bank Boshqaruvi bank Kengashiga va aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishiga hisobotdor.

31. Bank Boshqaruvi a`zolarining soni bank Ustavi bilan belgilanadi. Boshqaruvi tarkibiga rais, uning o'rinnbosari, bosh hisobchi va Yuridik xizmat departamenti direktori kiradi. Qobiliyatlilik, yaxlitlilik, tajriba va yaxshi obro' – bank Boshqaruvi a`zolari va a`zolikka nomzodlar uchun o'ta muhim hislatlar hisoblanadi.

32. Bank Boshqaruvining a`zolari bank Kengashi va bank aksiyadorlarining vakolatli shaxslari hisoblanadilar, va shu tarzda bank va bank aksiyadorlarining manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yishi shart.

33. Bank Boshqaruvi a`zolarini tayinlash (muddatini uzaytirish) bank Kengashi tomonidan amalga oshiriladi va xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan ko'rik tanlov asosida qabul qilinishi mumkin.

34. Bankni boshqarish uchun bank Boshqaruvi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy hujjatlar tasdiqlanadi.

35. Bank Boshqaruvi amaldagi qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlariga binoan boshqa majburiyatlarni bajarishi va boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

Bank Boshqaruvi Raisi:

36. Bank Boshqaruviga qonunchilik va bank Ustavi bilan aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishining, bank Kengashining va Bank Boshqaruvining vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal qilishga haqli bo`lmagan Rais rahbarlik qiladi.

37. Bank Boshqaruvi Raisi Bank Kengashining O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan qarori asosida lavozimiga tayinlanadi, keyinchalik ushbu masalani aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishiga tasdiqlash uchun kiritgan holda. Bunda Bank Boshqaruvi Raisini tayinlash to`g`risidagi qaror, odatda, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo`lgan ko`rik tanlov asosida qabul qilinadi.

38. Boshqaruv Raisi bank ishlarini boshqarish va tegishli ravishda bankning o`ta muhim xodimlari faoliyatini nazarat qilib turish uchun, zarur tajribaga, vakolatlarga va xushmuomalalik hislatlariga ega bo`lishi kerak.

39. Bank Boshqaruvi Raisi bank nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi, shu jumladan uning manfaatlarini namoyon qiladi, bank nomidan bitimlar tuzadi, bank tarkibiy bo`linmalari (filiallari, OPERB, MIM) rahbarlarini tayinlaydi, shtatlarini tasdiqlaydi, bankning barcha xodimlari tomonidan ijro etilishi lozim bo`lgan buyruqlar chiqaradi va ko`rsatmalar beradi.

40. Bank Boshqaruvi Raisi Bankni boshqarish uchun tegishli tarkibiy bo`linma rahbari tomonidan Bank Boshqaruviga a`zolari va Ichki audit departamenti direktori bilan kelishilgan holda kiritilgan bankning mahalliy hujjatlarini tasdiqlaydi.

41. Bank Boshqaruvi Raisi amaldagi qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlariga binoan boshqa majburiyatlarni bajarishi va boshqa huquqlarga ega bo`lishi mumkin.

3-BOB. FAOLIYATNING SHAFFOFLIGINI VA ICHKI NAZORATNING SAMARADORLIGINI TA`MINLASH.

42. Bank faoliyatining shaffofligini ta`minlash uchun:

a) bankning korporativ saytida va qonunchilik bilan nazarda tutilgan boshqa manbalarda, zarurat tug`ilganda – ingliz, rus, hamda aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga, shu jumladan xorijiy menejerlarga qulay bo`lgan boshqa tillarga tarjimasi bilan birga bank haqidagi ma`lumotlarning chop etilishi ta`minlanadi;

b) bankning korporativ saytida Bank Boshqaruvi va uning faoliyatining samaradorligini baholash, bank aksiyadorlik kapitalining tuzilishi haqidagi ma`lumotlar chop etiladi;

v) zaruratga qarab, sof foydaning taqsimlanishi nazarda tutilgan, dividendlar miqdorlari, ularning bankda qabul qilingan dividend siyosatiga mosligini baholash asoslari chop etiladi.

43. Bank faoliyati shaffofligini ta`minlash uchun, Bank Kengashi boshqaruv organlari, bank nazorati va uning xodimlari tomonidan riosa qilinishi majburiy hisoblangan Axborot siyosati to`g`risidagi nizomni tasdiqlaydi.

44. Samarali ichki nazorat mexanizmlarini joriy qilish maqsadlarida:

- a) aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishining qarori bo'yicha bankning o'rta muddatli va uzoq muddatli davr uchun bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadlarining bajarilishiga mosligi predmetiga har yilgi tahlilini o'tkazish;
- b) bank ichki nazorati tizimini tashkil etishning asosiy maqsadi etib bank aksiyadorlari, shu jumladan minoritarlar huquqlari va manfaatlarining himoya qilinishini ta`minlashni belgilash;
- v) bankning ichki audit xizmatiga ichki nazoratni, shu jumladan 50% ortiq ustav kapitali bankka tegishli bo'lgan Yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini berish;
- g) bank nomidan bank tarkibiga kiradigan korxonalarni boshqarish organlaridagi bank vakillariga ovoz berish tartibini belgilash;
- d) bank aksiyadorlari umumiyligi yig`ilishida ishtirok etgan shaxsga bunday shaxs hisobiga u tomonidan to'ldirilgan bYulleten nusxasini ko'paytirish imkoniyatini berish;
- e) bank aksiyadorlariga bank Boshqaruvidan bajarilgan ishlari va biznes-reja ko'rsatgichlariga erishish to'g'risidagi doimiy hisobotlarni talab qilish imkoniyatini berish;
- yo) bank ichki nazorat organlari aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishi, bank Kengashi, Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi va aksiyadorlar bilan o'zaro munosabatlari tartibini belgilash.

45. Bankda samarali ichki nazorat mexanizmlarini joriy etish uchun aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishi bank xodimlari, boshqaruv va nazorat organlari a`zolari tomonidan rioya qilish uchun majburiy hisoblanadigan Ichki nazorat to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi.

4-BOB. AKSIYADORLAR HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI AMALGA OSHIRISHNI TA`MINLASH.

46. Aksiyadorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarinining amalga oshirilishini ta`minlash uchun imkoniboricha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi:

- a) aksiyadorlar va bank o'rtasidagi aloqalarni soddalashtirish mexanizmlarini yaratish va takomillashtirish;
- b) elektron pochta orqali (elektron raqamli imzoni tasdiqlagan holda), shuningdek o'z vakolatlarini aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishi vakiliga berish yoki videokonferents aloqa rejimida aksiyadorlar umumiyligi

yig`ilishini o'tkazish yo'li bilan aksiyadorlar umumiy yig`ilishida shaxsan ishtirok eta olmaydigan aksiyadorlar uchun ovoz berish imkoniyati, sharoitlarini yaratish va takomillashtirish;

v) bankning mahalliy hujjatlarida aksiyadorlar umumiy yig`ilishi o'tkazilgunga qadar kun tartibi bo'yicha zarur bo'lgan ma'lumotlarni, shu jumladan aksiyadorlar umumiy yig`ilishi kun tartibiga nisbatan Bank Kengashining pozitsiyasini kiritilishini nazarda tutish;

g) aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro aloqalari uchun javobgar bo'lgan bank xodimi yoki bo'linmasini belgilash (tayinlash);

d) bank Ustavi bilan bankning 1% kam bo'lмаган oddiy aksiyalari egalariga bank kengashi yig`ilishining chaqirilishni talab qilish, hamda kun tartibi va daromadni taqsimlash, boshqaruv va nazorat organlari a`zoligiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish, shu jumladan ularni aksiyadorlar umumiy yig`ilishi o'tkazilguniga qadar almashtirish imkoniyatini berish;

e) bankning mahalliy hujjatlarida aksiyadorlar, shu jumladan minoritarlar uchun, ovoz berilganda ularning qo'shma pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimlari tuzilishi imkoniyati mavjud bo'lshi kerak.

yo) bankning mahalliy hujjatlarida bank mablag`lari hisobiga Minoritar aksiyadorlar qo'mitasini ta`minlash uchun sarf-xarajatlarni qoplash imkoniyatini nazarda tutish;

j) bank Ustavida minoritar aksiyador asossiz ravishda hujjatlarni talab qilish va maxfiy ma'lumotlardan, tijorat va bank siridan foydalanish yo'li bilan bankning boshqaruv organlarining faoliyat Yuritishiga to'sqinlik qilmasligi kerak;

z) bankning mahalliy hujjatlarida "teng huquqlilik", ya`ni bankning barcha aksiyadorlari o'z ulushlaridan, daromadlari darajalaridan, jinsidan, irqidan, dinidan, millatidan, tilidan, ijtimoiy kelib chiqishidan, shaxsiy va jamoat holatidan qat`iy nazar, ularga nisbatan teng munosabatda bo'lism tamoyilini aks ettirish;

i) Bank Boshqaruvi, bank Kengashi va Taftish komissiyasi a`zolarining, shuningdek bankning yillik moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tekshiruvini amalga oshirgan auditorlik tashkiloti vakilining (zaruratga qarab) aksiyadorlarning yillik umumiy yig`ilishida ishtirok etishlarini ta`minlash;

y) Bank Kengashi to'g`risidagi Nizomda bank Kengashi a`zolari Bank Kengashini tashkil etish va uning yig`ilishlarini o'tkazish bilan bog`liq bo'lgan majburiyatlarni bajarishlaridan ozod qilinishi mumkin bo'ladigan sharoitlar, Bank Kengashi raisi faoliyati va funksiyalari tartibini nazarda tutish;

k) aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishini ta`minlashga yo'naltirilgan boshqa zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5-BOB. UZOQ MUDDATLI ISTIQBOLLI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI VA VAZIFALARINI BELGILAB OLISH.

47. Uzoq muddatli istiqbolli rivojlantirish strategiyasi va vazifalarini belgilab olish uchun, bankning boshqaruv organlari:

a) bankning strategik maqsadlari sifatida moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, bank faoliyati va moliyaviy faoliyatni yaxshilash, O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida daromad olishni oshirishni belgilab oladilar;

b) bank sohasi va raqobat muhiti tahlilidan kelib chiqqan holda, aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishida 5 yildan ortiq bo`lgan davr uchun bankni uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

v) chet el davlatlari amaliyotida muvaffaqiyatlari sinovdan o`tkazilgan boshqaruv uslublarini, shu jumladan SWOT, GAP va boshqa yondoshuvlarni, maxsus dasturiy mahsulotlarni va h.k. ham birgalikda keng qo`llaydi;

g) aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishi tomonidan tasdiqlangan uzoq muddatli stretegiya asosida qisqa muddatli (har yilgi) va o`rta muddatli (5 yilgacha bo`lgan davr uchun) biznes-rejalarini ishlab chiqadi va tasdiqlash (ma`qullash) uchun Aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishiga yoki Bank Kengashiga kiritadi;

d) bankda qabul qilingan rivojlantirish rejalaridan har birida belgilangan maqsadlarga erishish monitoringini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi zarur miqdoriy va sifat mezonlarini joriy etadi.

48. Bank Kengashi Bank Boshqaruvi, bankning ichki nazorat organlari, Bank Kengashi qoshida tashkil etilgan qo`mitalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, zarurat tug`ilganda bankni rivojlantirish va ularda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringini ishlab chiqishni tashkil etish uchun ekspertlarni jalb qiladi.

6-BOB. BANK IJRO ORGANINING AKSIYADORLAR VA INVESTORLAR BILAN SAMARALI O`ZARO MUNOSABATLARI MEXANIZMLARINI JORIY ETISH.

49. Ijro organining aksiyadorlar va investorlar bilan samarali o`zaro munosabatlari mexanizmlarini joriy etish uchun, bankning boshqaruv organlari:

a) bankning aksiyadorlari, Kengashi a`zolari, Boshqaruvi va nazorati o`rtasida o`zaro ishonch, hurmat, hisobodorlilik va nazorat tamoyillari asosida o`zaro munosabatlarni ta`minlaydilar;

b) bankning mansabdar shaxslari tomonidan o`z majburiyatlarini professional asosda, ular tomonidan qonunchilikdan, bank ustavidan va boshqaruv organlari qarorlaridan kelib chiqadigan o`z majburiyatlarini oqilona bajarishlari to`g`risidagi talablarini joriy etadilar;

v) so`rov yo`li bilan, shuningdek videokonferents rejimida bank Kengashi yig`ilishlarini o`tkazish holati va tartibini tartibga soladilar;

g) aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishini audio-video yozib olinishi va translyatsiyasini Internet tarmog`ida sanksiyalashtirish masalalarini bank aksiyadorlari umumiyligi yig`ilishi raisining vakolatlariga kiritadilar;

d) o`quv kurslarida, seminarlarda va b. ishtirok etish yo`li bilan bankning mansabdar shaxslari malakalarini oshiradilar;

e) imkoni boricha, bankda bank Kengashiga hisobotdor bo`lgan korporativ maslahatchi lavozimini va bank faoliyatida korporativ qonunchilik talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek korporativ nizolarning hisobini Yuritish uchun javobgar bo`lgan shaxs lavozimini kiritadilar;

yo) aksiyadorlar umumiyligi yig`ilishida hisobot beradigan bank boshqaruv va nazorat organlari dokladi (hisoboti) shakli va mazmuniga talablar qo`yadilar, umumiyligi yig`ilishning davomiyligini belgilab beradilar;

j) aksiyadorlar vakili sifatida chiqadigan ijro organi a`zolarining ijro organi a`zolarini saylash masalasi bo`yicha ovoz berish huquqini chegaralab qo`yishlari mumkin.

50. Ijro organining aksiyadorlar va investorlar bilan samarali o`zaro munosabatlari mexanizmlarini joriy etish uchun, bankning zarur ichki hujjatlarini qabul qiladi, va ularda Yuqorida qayd etib o`tilgan qoidalarni aks ettiradi.

7-BOB. KASBIY AXLOQ VA MANFAATLAR BO'YICHA NIZOLARNI BARTARAF ETISH.

51. Bankning strategik maqsadlariga erishishning muhim omili – quyidagi korporativ boshqaruv jihatlarini belgilab beruvchi, bankirning professional odobi standartlarini belgilashga yo'naltirilgan Bank Kengashi va Boshqaruvi faoliyati hisoblanadi:

- a) sog`lom va xavfsiz bank amaliyotini o'tkazish;
- b) bank manfaatlarini bankning aksiyadorlari, mansabdar shaxslari va bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lган boshqa shaxslarnin noo'rин yoki noqonuniy hatti-harakatlaridan himoya qilish;
- v) qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlariga rioya qilish;
- g) manfaatlar nizolari Yuzaga kelishi mumkin bo'lган vaziyatlar va faoliyat sohalarini aniqlash va manfaatlar nizolarini bartaraf etish;
- d) bank faoliyati natijalarinigina emas, balki strategik maqsadlarga mosligi va bankning kasb odobiga rioya qilinishini ham hisobga olgan holda xodimlarning mehnatiga haq to'lashni, mukofotlash va rag`batlantirishni belgilash (Bank Kengashi va Boshqaruvini ham qo'shgan holda);
- e) bank xodimlari va mansabdar shaxslarini kreditlashda xavfsizlik va bankning ishonchliligi talablariga rioya qilish;
- yo) xodimlarga rahbariyatning noqonuniy, noaxloqiy yoki shubhali harakatlari haqidagi tashvishini ifoda etish imkonini beruvchi, va rahbariyat tomonidan salbiy tarzda javob qaytarilishi mumkin bo'lган himoyani ta`minlovchi mexanizmlarning mavjudligi.

52. Korporativ boshqaruv darajasiga pozitiv ta'sir ko'rsatishni ta'minlash maqsadida, bankning professional bank odobi qoidalari barcha xodimlarga etkazilgan bo'lishi va ularga Bank Kengashi va Boshqaruvini ham qo'shgan holda, bank tashkiliy tuzilmasining barcha darajalarida rioya qilinishi lozim.

53. Bankda insayderlar, affillangan va bank bilan bog`liq bo'lган boshqa shaxslar bilan manfaatlar nizolarini bartaraf etish va operatsiyalarni reglamentlash qonunchiliga rioya qilinishini ta`minlovchi mexanizmlar ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Xususan, bank bilan bog`liq bo'lган shaxslar bilan bitimlar tuzish, ushbu bitimlarning hisobini Yuritish va ular bo'yicha hisobotlarni taqdim qilish, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2015 yil 22 iYulda 19/15-raqami bilan qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015 yil 5 avgustda 2706-raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Qaror bilan tasdiqlangan "Bank bilan bog`liq bo'lган shaxslar bilan tuziladigan bitimlar (shartnomalar) to'g'risida"gi Nizom talablariga qat'iy muvofiq tarzda amalga oshirilishi kerak.

54. Kadrlar siyosati sohasida korporativ boshqaruv quyidagilarga taaluqli bo'lган ichki hujjatlarning mavjudligini va ularga rioya qilinishini nazarda tutadi:

- a) xodimlarni ishga qabul qilish va bo'shatish (bank rahbariyatini ham qo'shgan holda);
- b) kadrlarning boshqa ishlarga o'tishlari va xizmat darajasining ko'tarilishi;
- v) xodimlarni o'qitish (Bank Kengashi va Boshqaruvi a'zolarini ham qo'shgan holda);
- g) malakali va vakolatli xodimlarni saqlab qolish choralar tizimi (rahbariyatni ham qo'shgan holda);
- d) bank xodimlari tomonidan o'z majburiyatlarini tegishli darajada bajarmaganliklari, professional bank odobi kodeksini buzganliklari uchun choralar qo'llash (Bank Kengashi va Boshqaruvini ham qo'shgan holda).

55. SHaffoflik samarali korporativ boshqaruvning zarur sharti hisoblanadi. Bankni boshqarish aksiyadorlar, omonatchilar, boshqa manfaatdor shaxslar va bozor ishtirokchilari uchun shaffof bo'lishi kerak. Bankni boshqarishning shaffofligi aksiyadorlar, omonatchilar va bankning boshqa kreditorlariga boshqaruv

organlari faoliyatining monitoringini, bankning samarali korporativ boshqaruvinи amalga oshirish bo'yicha bank obro'sini saqlash, shuningdek Bank Kengashi va Boshqaruvi ishining samaradorligini baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim qilish imkoniyatini beradi.

56. Bank xatarlarga barqarorlik ko'rsatgichlariga taaluqli bo'lgan (zarur konfidentsiallikni buzmagan holda), ushbu ko'rsatgichlarni belgilash tartibini va bank Kengashining ushbu jarayonda ishtiroki darajasini tasvirlab bergen holda, asosiy lahzalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berishi kerak.

57. Ochib beriladigan ma'lumot aniq va ravshan bo'lishi, undan aksiyadorlar, omonatchilar, boshqa manfaatdor tomonlar va bozor ishtirokchilari bemalol foydalana olishlari mumkin bo'lgan tushunarli shaklda taqdim qilinishi kerak.

58. Bank mansabdor shaxslari tomonidan harakatlar va bitimlar amalga oshirilganda, shuningdek ular tomonidan ma'lumotlar ochib berilganda manfaatlar nizosi bilan bog'liq bo'lgan nizoli vaziyatlar Yuzaga kelishini bartaraf etish va tartibga solish maqsadlarida, Bank quyidagilarni o'z ichiga olgan "Manfaatlar nizolarini bartaraf etish va tartibga solish to'g'risidagi nizomni" ishlab chiqadi:

- a) bank mansabdor shaxslarining majburiyatlari bank manfaatlari yo'lida harakat qilish;
- b) bank mansabdor shaxslari tomonidan harakatlar va bitimlar tuzish amalga oshirilganda, shuningdek ular tomonidan ma'lumotlar ochib berilgan taqdirda, manfaatlar nizosi Yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni belgilash;
- v) bank mansabdor shaxslarining Bank Kengashini manfaatlar nizolar Yuzaga kelganligi to'g'risida xabardor qilish majburiyatlari;
- g) Bank Kengashining ruxsatsiz Bank mansabdor shaxslarining boshqaruv va boshqa Yuridik shaxslarni nazorat qilish organlarida ishtirok etishlarini taqiqlash;
- d) Bank mansabdor shaxslari tomonidan harakatlar va bitimlar tuzish amalga oshirilganda Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar nizosining oldini olish.

59. Manfaatlar nizolarini bartaraf etish va tartibga solish to'g'risidagi nizom Aksiyadorlar umumiyligini yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi va bankning boshqaruv va nazorat organlari, hamda uning xodimlari tomonidan rioya qilish uchun majburiy hisoblanadi.

8-BOB. BANK FAOLIYATI STANDARTLARINI BELGILASH VA UNING XODIMLARINING XULQI.

60. Bankning missiyasi – muvaffaqiyatga erishish va uni har bir hamkor bilan bo'lishish. SHu munosabat bilan, bank moliya bozoridagi eng istiqbolli sohalarning daromadliroq segmentlarida ishlaydigan, kuchli moliyaviy superamarkatni yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

61. Bankning korporativ qadriyatlariga quyidagilar kiradi:

- a) *SHaxsga hurmat*. Har qanday insonning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, ushbu huquqlar va erkinliklarga qat'iy rioya qilish va ularni himoya qilish - bankning kundalik faoliyatidagi birinchi darajali tamoyili sifatida. Insonda faqat yaxshi tomonlarni ko'rishga intilish – uning eng yaxshi tomonidan namoyon bo'lishi. Boshqa odamlar manfaatlarini hurmat qilish, murosa qilishni (kompromissga borishni) bilish. Xodimlarning lavozimlari, ijtimoiy mavqeい, jinsi, yoshidan qat'iy nazar, ularning barchasi uchun teng imkoniyatlar yaratish. Begona fikrga e'tibor, tinglashga tayyor bo'lish. Boshqa insonning mehnatini hurmat qilish.

b) *Mijoz mo'ljalini ola bilish.* Mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha operatsiyalarni vijdonan, o'z vaqtida va yaxshi sharoitlarda amalga oshirish, doimiy ravishda o'zini o'zi takomillashtirib borishga va novatorlikka intilish, bankning yanada samaraliroq ishlashi uchun doimiy ravishda eng yaxshi vositalar va imkoniyatlarni qidirib topish. Biz barcha sohalardagi hamkorlikni axloq, ishonch va hurmat tamoyillariga asoslangan holda rivojlantiramiz.

v) *Jamoaviylik.* Ishdagi hamkasblar bilan munosabatlarni faqat o'zaro tushunish, ishonch, o'zaro yordam va birdamlik, professional bilimlar va doimiy amaliy tajriba almashinuvni asosida qurish. Butun Bank jamoasi oldiga qo'yilgan strategik vazifalarni hal qilishga va bank missiyasini bajarishga intilishdagi umumiy ishga sodiqligi;

g) *Halollik va vijdoniylik.* Noinsof va sotqinlikka moyil bo'lgan odamlarga bankda joy yo'q ekanligini, har qanday betartib harakat ulkan yo'qotishlarga olib kelishi mumkin ekanligini tushunish. To'g'ri asoslarga ishonish. Xiyonat qilmaslik va o'zini o'zi hurmat qilish, "Sotib olish"ga urinish – insonga bo'lgan humratsizlikning namoyon bo'lishi ekanligini tushunish. O'z fikrini ochiq belgilash, jamoa bilan barcha murakkabliklarni va suv osti toshlarini haqgo'ylik bilan muhokama qilish.

d) *CHempionlikka intilish.* Raqiblardan bir qadam oldinda bo'lishga intilish, eng yaxshi, etakchilik pozitsiyalarini saqlab turish, doimo birinchi o'rinda turish. Muvaffaqiyatga qat'iy ishonish, natija – faoliyatning bahosi ekanligini tushunish. Barqaror Yuqori natijalarni ko'rsata bilish, o'z sohasidagi eng yaxshi kasb ustasi bo'lishga intilish.

62. Mijozlar bilan munosabatlarda bank quyidagilarga rioya qilishi shart:

- a) mijozlar bilan shartnomalar tuzish orqali o'zaro ishonch asosida munosabatlar o'rnatish;
- b) yagona, umumiy qabul qilingan atamalardan foydalanish va o'zining o'zaro munosabatlarini tartiblilik va ishbilarmonlik hamkorligi asosida qurish;
- v) bank tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va qo'yiladigan texnik talablarga mosligini ta'minlash;
- g) ko'rsatilayotgan xizmatlar va bank mahsulotlari haqida zarur to'liq ma'lumotlarni taqdim qilish, mijozlarda qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgan masalalarni hal qilishda yordam berish;
- d) mijozlarning murojaatlarini o'z vaqtida va bataysil ko'rib chiqish;
- e) bank xodimlari tomonidan ushbu Kodeksga zid keladigan harakatlarni sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish.

63. Bank o'z mijozlari bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini o'rnatishdan manfaatdordir, yangi mijozlarni jalb qilish esa "Mijoz bankni tanlaydi" tamoyilidan kelib chiqishi kerak.

64. Har bir mijozning individualligiga e'tibor qaratish bankdagi mijozlar siyosatining asosi hisoblanadi. Bank barcha qolgan mijozlarga xizmat ko'rsatish yomonlashib qolmasligi kerak degan o'zgarmas shart bilan, VIP-mijozlar guruhiga ega bo'lishni yo'lga qo'yadi.

65. Bank xodimlari mijozlarning bankka taaluqli bo'lgan manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yadilar, va bank mijozlarining manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday harakatlarning sodir etilishiga yo'l qo'ymasliklari kerak.

66. Nizoli vaziyatlar Yuzaga kelgan taqdirda, mijozning manfaatlariga e'tibor bilan munosabatda bo'lish va maksimal imkoniyat bilan ularni bank manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilishlari kerak.

67. Ishbilarmon hamkorlar bilan munosabatlar o'zaro hurmat, ushbu munosabatlardagi ishtirokchilarning har biri uchun hamkorlik munosabatlarining qadrini tan olish va tomonlarning ishbilarmonlik hamkorlikdagi teng huquqliliklarini tan olish asosida quriladi.

68. Hamkorlik munosabatlarida bank o'ziga olgan barcha majburiyatlarni so'zsiz bajarish tamoyiliga asoslanadi.

69. Bank shubhali obro'ga ega bo'lган, bozordagi umumiyligini qabul qilingan normalar va qoidalarga rioya qilmaydigan, shuningdek jinoiy faoliyatdan va terrorizmni moliyalashtirishdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi harakatlar to'g'risidagi qonunchilik talablariga tegishli darajada rivoja qilmaydigan tashkilotlar va kontragentlar bilan ishbilarmonlik munosabatlariga kirishmaydi.

70. Bankning hamkorlik munosabatlari, shu jumladan rasmiy shartnomaviy munosabatlari mavjud bo'lмаган hamkorlar bilan munosabatlari chog`ida olingan ma'lumotlarning to'liq maxfiyligini ta`minlashi kerak. Hamkorlik munosabatlari chog`ida olingan barcha ma'lumotlar oldindan hamkorlarning tegishli roziliginini olmasdan turib oshkora qilinmasligi lozim.

71. Bank o'zining raqobatchilari bilan o'zaro munosabatlarni haqgo'ylik, o'zaro hurmat, hamda shubhali tusga ega bo'lган har qanday usullar va uslublarni raqobatli kurashda qo'llamaslik tamoyillariga asoslanib quradi. Raqobatli kurashda nizolar va kelishmovchiliklar Yuzaga kelgan taqdirda, muzokaralarga va kompromiss qidirishga ustuvorlik qaratiladi, bunga erishishning imkonini bo'lмагanda esa – sud orqali hal qilinadi.

72. Bank o'z xodimlari bilan munosabatlarini uzoq muddatli hamkorlik va o'zaro majburiyatlarini so'zsiz bajarish tamoyillariga asoslanib quradi.

73. Bank xodimlarga nisbatan mehnatga haq to'lash va ularning xizmat pog'onasi bo'yicha ko'chirilishi masalalarida diskriminatsiyaning namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

74. Bank manfaatlari xodimning shaxsiy manfaatlariga zarar etkazmasligi kerak.

75. Bank quyidagilarga yo'naltirilgan barcha zarur choralarini qo'rishi kerak:

a) o'z xodimlari sog`lig`ini saqlash va ularning mehnat xavfsizligini ta`minlash;

b) bank xodimlariga zarur Yuridik va ma'muriy yordam ko'rsatish;

v) bank xodimlarining bankdagi ishlarning farovon holatidan shaxsiy manfaatdorliklarini oshirish, ularning ijodiy potentsialini va tashabbuskorligini rag`batlantirish;

g) bank xodimlarining jamoat ishlaridagi ishtirokiga huquqlarini hurmat qilinishini ta`minlash.

76. Bank o'z xodimlarining professional o'sishi va ularning ijtimoiy farovonligini har tomonlama oshirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratadi.

77. Bank har tomonlama bankning ishbilarmonlik obro'si, hamda moddiy va nomoddiy manfaatlariga zarar etkazilishiga olib kelishi mumkin bo'lган vaziyatlarning Yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaydi.

78. Bank xodimlari xizmat ma'lumotlaridan iborat bo'lган, shu jumladan elektron ko'rinishdagi barcha yozuvlarni olib boradi, hamda ularni bankning tegishli mahalliy hujjatlari talablariga to'liq muvofiq holda saqlaydi, shuningdek ushbu ma'lumotlardan shaxsiy maqsadlarda yoki o'zining affillangan shaxslari manfaatlari yo'lida foydalanish faktlariga yo'l qo'ymaydi.

79. Bank xodimlari Bankning orgtexnikalaridan, aloqa vositalaridan, axborot va tarmoq resurslaridan ishlab chiqarish maqsadlaridagina foydalanadilar.

80. Bank xodimlari xulq masalalarida quyidagi majburiyatlarga egadirlar:
- a) jamoada ishonch, halollik, yaxlitlik va do'stona muhitda yaratishga intilish;
 - b) subordinatsiyaga rioya qilish, bevosita rahbarining ishga taaluqli bo'lgan ko'rsatmalarini tezkorlik bilan bajarish;
 - v) nizoli masalalarni ommaviy tarzda aniqlashtirmaslik;
 - g) bir birlarining fikrlariga va ishga samimi manfaatdorlikni, ochiqlik va takabbursizlikni namoyon qilish;
 - d) o'zining kasbiy vakolatlarini qo'llab turishga doimiy ravishda intilish;
 - e) ma'lumotlarni noto'g'ri namoyon qiladigan, xodimlarning kasbiy mahoratini shubha ostiga qo'yishi yoki bank imidjiga putur etkazishi mumkin bo'lgan og`zaki va yozma arizalar va kafolatlarni bermaslik;
 - yo) boshqalarning fikrini hurmat qilish, o'z hamkasblarining ish bo'yicha insoniylik fazilatlarini kamsitmaslik;
 - j) kasal bo'lib qolgan yoki ishga chiqishning iloji bo'lмаган hollarda o'z boshlig`iga xabar berish;
 - z) o'zaro xushmuomala bo'lish: bir biriga "Siz" deb murojaat qilish, yoshi kattalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish (birinchi bo'lib salomlashish, joy berish, gapini bo'lmaslik va h.k.), laqab va nom qo'ymaslik, beadab so'zlardan foydalanmaslik, qo'pollik va takalluflik qilmaslik, tovushini balandlatmaslik, qichqirmaslik;
 - i) ish joyida uyali telefonlarni past tovush darajasiga o'tkazib qo'yish;
 - y) xizmat telefonidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishni chegaralash;
 - k) o'zining lavozim majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan shaxsiy foyda ko'rish qat'yan man etiladi;
 - l) rahbar o'zining qo'l ostidagi xodimi uchun xolislik, odoblilik va vazminlik misoli bo'lishi kerak.

81. Bank xodimlarining tashqi ko'rinishiga ish vaqtida qo'yiladigan talablar Bank Boshqaruvi tomonidan belgilanadi.

9-BOB. MA'LUMOTLARNI AUDIT VA MOLIYAVIY HISOBOT XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA CHOP ETISH.

82. Bank, qonunchilik talablarini bajarish uchun, hisobotni har qanday foydalanuvdag'i ochiq ravishda bemalol foydalana oladigan audit va moliyaviy hisobotga binoan chop ettirishi kerak.

83. Ma'lumotlarni audit va moliyaviy hisobot asosida qonunchilik bilan belgilangan muddatlarda chop etish kerak.

10-BOB. BANKNING KORPORATIV VEB-SAYTINI YURITISH TARTIBI.

84. Bankning "Internet" axborot-telekommunikatsiyalar tarmog'idagi korporativ veb-sayti bank ma'lumotlarini ochishning asosiy manbai hisoblanadi. Bank saytida bank faoliyatining mavjud jihatlari to'g'risida ob`ektiv tushunchani shakllantirish uchun etarli bo'ladigan ma'lumotlar joylashtiriladi.

85. Bankning korporativ veb-sayti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 dekabrdagi 355-sonli qarori bilan tasdiqlangan davlat va xo'jalik boshqarmalari organlari, joylardagi davlat xokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlariga asosiy talablarga mos kelishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 2 iYuldag'i 176-sonli qarori bilan tasdiqlangan Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga talablar to'g'risidagi nizomiga mos kelishi kerak.

86. Bankning korporativ veb-saytiga ma'lumotlar davlat tilida taqdim qilinadi. Bankning korporativ veb-sayti boshqa tildagi versiyalarga ham ega bo'lishi mumkin. Bankning korporativ veb-saytida joylashtirilgan ma'lumotlar haqqoniy va bank faoliyatini ob`ektiv tarzda yoritib berishi kerak.

87. Bank tomonidan Bankning korporativ veb-saytida joylashtirilgan ma'lumotlarni yo'q qilish, bloklash, buzish va soxtalashtirishni, shuningdek sanksiyalanmagan aralashuvlarning boshqa shakllarini bartaraf etish bo'yicha tegishli himoya qilish choralar qo'rilgan bo'lishi kerak.

88. Bankning korporativ veb-saytida ushbu Kodeks tavsiyalariga amal qilish va ularga rioya qilish majburiyatlarini qabul qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni chop ettirishni amalga oshirish kerak.

89. Bank faoliyati haqida tarqaladigan ma'lumotlar, uch guruhga ajratiladi: fosh etilishi shart bo'lgan ma'lumot; qo'shimcha ma'lumot; ochiq ma'lumot.

90. YUqorida ko'rsatib o'tilgan bank haqidagi ma'lumotlarni ochish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, "Kapitalbank" ATB Axborot siyosati to'g'risidagi nizomi va bankning boshqa mahalliy hujjatlari bilan belgilanadi.

11-BOB. KODEKS QOIDALARINI JORIY ETISH MONITORINGI.

91. Kodeks qoidalarining joriy etilishini monitoring qilish maqsadlarida, bank amalga oshirilishi uchun mustaqil tashkilotlar, shu jumladan shtatlar jadvalida korporativ boshqaruvning tegishli guvohnomasiga ega bo'lgan mutaxassisiga yoki qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisiga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari, shuningdek akkreditatsiyalangan reyting agentliklari, korporativ boshqaruv bo'yicha ilmiy-ta'lim markazi, xususiyashtirish, raqobatni rivojlantirish va korporativ boshqaruv muammolarini tadqiqot qilish markazini jalb qilish tavsiya etiladi.

92. Korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash Bank Kengashining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi. Bankda korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash bank bilan mulkiy munosabatlar orqali bog'liq bo'limgan tegishli shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

93. Korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash, imkonli boricha bir yilda kamida bir marta o'tkaziladi

94. O'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari bankning veb-saytida, bunday baholashni o'tkazgan tashkilotlar xulosasi bilan birgalikda chop ettiriladi.

12-BOB. YAKUNIY QOIDALAR.

95. Ushbu Kodeks qoidalariga rioya qilinishining nazorati Bank Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

96. Ushbu Kodeks, shuningdek unga kiritiladigan o'zgartirishlar va qo'shimchalar Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

97. Ushbu Kodeks qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, bank Ustaviga zid kelgan taqdirda, ushbu Kodeksga o'zgartirishlar kiritilgan vaqtgacha, tegishincha O'zbekiston

Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlari va bank Ustaviga asoslanish kerak.

98. “Kapitalbank” AKB ushbu Kodeksi kuchga kirgan vaqtdan boshlab, uning 2015 yil 2 noyabrdagi qabul qilingan tahriri o’z kuchini yo’qotadi.

Kiritildi:

YUridik xizmat departamenti direktori

Samandarov M.D.

Kelishildi:

Boshqaruv Raisi

Olimov K.A.

Boshqaruv Raisi o’rinbosari

Yuldashev B.T.

Boshqaruv Raisi o’rinbosari

Karimbaev SH.K.

Boshqaruv Raisi o’rinbosari

Voistinov K.A.

Bosh hisobchi

Skuybida M.D.

Ichki audit departamenti direktori

Allayorova D.N.